

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga uning turlari	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasini	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oly o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida)	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'mni	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
<b>B.M.Qurbanova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'mni	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'mni (Doira cholg'usi misolida)	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



УО'К: 218.117.84

**ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLAR VA ZAMONAVIY AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARINI O'QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISH USULLARI**

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И  
МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**INTERACTIVE METHODS IN THE PROCESS OF MODERN EDUCATION AND  
METHODS OF APPLYING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES TO THE  
EDUCATIONAL PROCESS**

Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li 

Farg'onan davlat universiteti, doktorant

**Annotatsiya**

Bu maqolada, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'qitish jarayonining integratsiyasi, umumta'lif makkabari va professional ta'llimda muhim ustuvor vazifalar va ularning hal qilinishi haqida tahlil va muhokama qilish mumkin. Texnologiya fanini o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orqali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish dolzarb muammoning ijobiy yechimini topishga xizmat qiladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenesining muhim davrlari kasbliy kamol topish, rivojanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsnинг shakllanishi va rivojanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to' umrining oxiriga qadar uzuksizlik, vorisylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq holda amalga oshadi. O'qitishda turli vositalar va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunga o'qitish vositalari ham, texnologiya vositalari ham kirdi. Garchi ular bir-birdan farq qilsalar ham, ularning umumiy jihatlari ham bor. Maktabda texnologiyani o'rganish, undan foydalanishning eng yaxshi usullarini aniqlash va ularni nima yaxshi qilishini hal qilish muhimdir. Ijodkor shaxsnинг shakllanishini shaxsnинг o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojanishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

**Аннотация**

В данной статье можно проанализировать и обсудить интеграцию учебного процесса с информационно-коммуникационными технологиями, важные приоритетные задачи и их решение в общеобразовательной школе и профессиональном образовании. Путём применения передовых педагогических и информационных технологий в процессе преподавания технологических наук на основе интегративного подхода формирование базовых и научных компетенций студентов служит поиску положительного решения актуальной проблемы. Профессиональная зрелость – важный период онтогенеза человека, начинающийся с профессионального становления и развития идей (14-17 лет) и заканчивающейся профессиональной деятельностью (55-60 лет). Становление и развитие творческой личности осуществляется в зависимости от взаимной совместимости изменений его внутреннего и внешнего мира, социально-экономических условий и онтогенеза человека – от рождения до конца его жизни, содержания деятельности, требующей непрерывности и преемственность. В обучении важно использовать различные инструменты и методы. Сюда входят как учебные пособия, так и технологические инструменты. Хоть они и разные, у них есть и что-то общее. В школе важно изучать технологии, выяснить, как лучше всего их использовать, и решить, что лучше всего подходит для них. Формирование творческой личности уместно рассматривать как развитие личности в плане творческой деятельности, осуществляющейся взаимосовместимым образом, и создания творческих продуктов.

**Abstract**

In this article, it is possible to analyze and discuss the integration of the teaching process with information and communication technologies, important priority tasks and their solution in general education schools and professional education. By applying advanced pedagogical and information technologies to the teaching process of technological science on the basis of an integrative approach, the formation of basic and scientific competences of students serves to find a positive solution to the current problem. Professional maturity is an important period of human ontogeny, starting with professional development and development ideas (14-17 years old) and ending professional activity (55-60 years old). The formation and development of a creative person is carried out depending on the mutual compatibility of changes in his inner and outer world, socio-economic conditions and human ontogeny - from birth to the end of his life, the content of activity that requires continuity and succession. It is important to use different tools and methods in

## PEDAGOGIKA

*teaching. This includes both teaching aids and technology tools. Although they are different, they also have things in common. It's important to learn about technology in school, figure out the best ways to use it, and decide what works best for them. It is appropriate to consider the formation of a creative person as the development of a person in terms of creative activities performed in a mutually compatible manner and creation of creative products.*

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, kompetensiya, tayanch kompetensiya, texnologiya, kompyuterli ta'lif, an'anaviy o'qitish, interoeksiya, sinektika, tafakkur.

**Ключевые слова:** Интеграция, компетентность, базовая компетентность, технология, компьютерное образование, традиционное обучение, взаимодействие, синектика, мышление.

**Key words:** Integration, competence, basic competence, technology, computer-based education, traditional teaching, interoction, synectics, thinking.

### KIRISH

Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni taylorlashda talabalarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lif olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda q'llash zamonaviy ta'lifning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'limgan bo'lsada, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. [1] Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiylar va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lif texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalarini tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiylarini asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenetining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. [2] Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to'umrining oxiriga qadar uzlusizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlanishiga kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. [3] Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lif tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada foydalilanilgan adabiyyotlar quyidagi mavzularga oid:

1. "Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии" nomli avtoreferat. Ushbu dissertatsiyada o'qituvchilarning texnologiya fanida ish faoliyatini uchun integratsion informatsion muhit mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. [4]

2. "Интеграции образования // Обучение за рубежом" nomli maqolada o'zbek tili yo'naliishida integratsiya mavzusining muhokamalari ko'rsatilgan. Maqolada xalqaro ta'lif tizimida o'zbek tili o'qitishning integratsiyasi va uning muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

3. "Педагогика и прогрессивные технологии обучения" nomli kitobda pedagogikaning progressiv tekhnologiyalar bilan bog'liq bo'limlari tahlil qilingan. Ushbu kitobda o'rganish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning o'quv jarayonini qanday o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

4. "Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования" nomli maqolada so'nggi axborot

texnologiyalarining insonning kommunikativ xususiyatlari ustidan o'zgarishlarni qanday o'zgartirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

5. "Дидактическая концепция формирования коммуникативной успешности младших школьников" nomli dissertatsiyada kichik maktab o'quvchilarining kommunikativ muvaffaqiyatini shakllantirishning didaktik konsepsiysi tahlil qilingan.

6. "The benefits of using clickers in small-enrollment seminar-style biology courses" nomli maqolada biologiya fanida kichik guruhlar bilan o'qitishda "clickers"dan foydalanishning foydalari ko'rsatilgan.

7."Интеграция-ўкувчиларда компетенсияларни ривожлан-тиришнинг асоси сифатида" nomli maqolada integratsiya va kompetensiyalar rivojlanishining asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.[5]

Ushbu adabiyotlar turli sohalar bo'yicha ta'lif texnologiyalarining o'quv jarayonida o'zgarishlarni o'rganish va o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan usullar haqida ma'lumot berish uchun foydalanilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Oliy ta'lif muassasalari yangi texnologiyalarni qabul qilish va aralash ta'limga o'tishdagi dastlabki nosozliklarga qaramay, asta-sekin yangi normaga moslashdi. Buning natijasi o'laroq, bugungi kunda talabalar jismoniy va keng miqyosda virtual bog'langan jamiyatdadir. Ta'lifning uzluksizligini ta'minlash uchun virtual ta'lif-ta'lifning hamma joyda qo'llanilishi innovatsion ta'lif-ta'lif amaliyotlarini rag'batlantirdi. Oliy ta'lif muassasalarida gibrildi siljish oldinga yangi yo'l bo'lib, shaxsan va onlayn ta'lifni aralashtirishni tezlashtirish yangi odatiy holga aylandi. Onlayn ta'lif Internet va ta'lifning to'liq integratsiyasi va zarur ko'nikmalarni egallash uchun yo'l ochdi. Ushbu siljish raqamli rasmiy va norasmiy ta'lif muhitida o'rganish va ishlash uchun bir qator raqamli kompetensiyalar bo'yicha malakani talab qiladi. Onlayn ta'limga o'tish muvaffaqiyatining muhim jihatni raqamli texnologiyalarni konstruktiv tarzda qabul qilish uchun zarur bilim, ko'nikma va munosabatlarga ega bo'lishning muqarrarligidir. Bu tektonik siljish, gibrildi yoki aralash sinflar, hamkorlik, tenglik, tajriba va innovatsiyalarni o'z ichiga olgan samarali ta'lif ekotizimini davom ettirishi mumkin. Ko'plab onlayn resurslar talabalarga hamkorlikda ta'lif olish uchun raqamli kontentga kirish, yaratish va almashish imkonini berdi.[6] Raqamli kompetensiyaning roli axloqiy, xavfsizlik va ijtimoiy o'lchovlarga yaxlit urg'u berish va turli xil bilimlar, qobiliyatlar va shaxslarning istaklarini o'z ichiga olganligi sababli yanada muhim bo'lib qoldi. Parallel yo'nalish ta'lif sohasida ko'rindi, bu yerda asosiy e'tibor raqamli jamiyatda yaxshiroq ishtiroy etish uchun talabaning imkoniyatlarini oshirishga qaratilishi kerak.

Integratsiyalashgan texnologik yondashuvlar jamiyatda narsalar qanday ishlashini va ularni qanday yaxshilashimiz mumkinligini tushuntirishga yordam beradi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish va odamlarga etkazib berishda texnologiya katta rol o'ynaydi. Maktablarda o'quvchilarning zamonaviyроq bilim olishlariga yordam berish uchun texnologiya qo'llaniladi. Maktablarda o'quvchilarni kelajakka tayyorlashda kompyuter va boshqa texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, biz talabalarga ko'p ma'lumotlar bilan ishlashni va internet kabi yangi ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni o'rgatishimiz kerak. An'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orgali biz o'quvchilar uchun yaxshiroq ta'lif muhitini yaratishimiz mumkin. Tadqiqotchilar ta'lifni yaxshilash uchun turli xil o'qitish usullari va texnologiyalarini qanday aralashtirishni o'rganishmoqda. Talabalar uchun matabda texnologiyadan qanday foydalanish va yangi narsalarni o'rganishni tushunish muhimdir. Texnologiya fanini o'qitish jarayoniga integrativ yondashuv o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish, uning elektron darslik va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan resurs manbalar bilan ta'minlash zaruratin keletirib chiqardi.[7] O'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida ta'lif texnologiyalari va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini uyg'unlashtirish printsipi asosida "Texnologiya" nomli elektron ta'lif resursi ishlab chiqildi. Mazkur elektron resurs yuqorida biz tavsiflayotgan va ta'limiyl texnologik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan texnologiya fanining metodik tizimidagi innovatsion jarayon hisoblanadi.

Tahlil ob'ektidagi elektron darslik dissertatsiyaning elektron variantiga ilova qilingan. Insoniyat tsivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lif berishga yo'naltirilgan faoliyat sohasi juda oddiy talablar asosida tashkil qilingan bo'lsa, bugungi kunga kelib,

## PEDAGOGIKA

ta'lilm jarayonini tashkil qilishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash kompetentsiyasiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobj hal qila oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lilm jarayonini integrativ texnologik yondashuv asosida tashkil qilishni taqozo etadi [53; 14-17- b.]. Ijtimoiy texnik taraqqiyot nuqtai nazaridan o'quvchilarning itellektual salohiyati, tayanch va fanga oid kompetentsiyalarining shakllanishi texnologiya fani sohasidagi texnika va texnologik jarayonlarning takomillashuviga mos kelishi zarur. Demak, qayd qilingan ijtimoiy talab va ijtimoiy buyurtma nafaqat ishlab chiqarish jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash, balki kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab asosida ta'limda integrativ yondashuvni takomillashtirish masalasini qo'yadi [26;-49-b.]. Ta'lilm jarayoniga axborot-kommunikatsiya va ta'limiyl texnologiyalarni integrativ yondashuv aosida qo'llashdan oldin, ularning nazariy va amaliy xususiyatlarini «sub'ekt-sub'ekt» jamlanmasidagi ahamiyatini o'rganish joiz bo'ladi. Pedagogik va axborot texnologiyalaridan integrativ yondashuv asosida foydalanish orgali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi bo'yicha keyingi paytlarda juda ham ko'p maqola va ilmiy manbalar yartilgan. Ularning barchasini to'g'ridan-to'g'ri ta'lilm jarayoniga qo'llayverish yuqori samara bermasligi mumkin. Ta'limda integrativ yondashuv asosida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash uchun bu texnologiyadan foydalanuvchining kasbiy mahorati etarli bo'lishi lozim [17; 15-b.]. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahsil qilish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumiashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

## XULOSA

Texnologiya fanini o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida tatbiq qilish orgali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish yuqorida qayd qilingan dolzarb muammoning ijobj yechimini topishga xizmat qiladi. Demak, o'qitishda turli vositalar va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunga o'qitish vositalari ham, texnologiya vositalari ham kiradi. Garchi ular bir-biridan farq qilsalar ham, ularning umumiyl jihatlari ham bor. Maktabda texnologiyani o'rganish, undan foydalanishning eng yaxshi usullarini aniqlash va ularni nima yaxshi qilishini hal qilish muhimdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахметов Л.Г. Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии. Автореф. дисс. докт.пед.наук. -Казань.2009. - С.48.
2. Поддякова Н. Интеграции образования // Обучение за рубежом. (33), - Москва, 2001. Ноябрь. - С. 3.
- Джураев Р.Х, ва бошқ. Педагогика. - Ташкент. 2013.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.- М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336
4. Берулова Г.А. Влияние современных информационных технологий на коммуникативные характеристики личности // Гуманизация образования. - Москва.2013 № 6. - С.
5. Гришанова И.А. Дидактическая концепция формирования коммуникативной успешности младших школьников. Автореф. дисс. докт.пед. наук. -Ижевск. 2010.
6. Smith, M. K., Trujillo, C., & Su, T. T. (2011). The benefits of using clickers in small-enrollment seminar-style biology courses. *Cell Biology Education*, 10(1), 14-17. doi: 10.1187/cbe.10-09-0114
7. Abdufatayev, S. (2022). ИНТЕГРАЦИЯ-ЎҚУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНСИЯЛарНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА. Физико-технологического образования, (6).